



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BOLALARINI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH, AQLIY VA MANTIQUIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MUHITNING TA'SIRI

To'laeva Lola Turg'unboy qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika inistuti Maktabgacha talim fakulteti 4-bosqich talabasi. Toshkent viloyati Parkent tumani 17-DMTT tayorlov guruxi tarbiyachisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6480893>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-aprel 2022

Ma'qullandi: 15-aprel 2022

Chop etildi: 20-aprel 2022

KALIT SO'ZLAR

Pedagog, atrof muhit, didaktik o'yinlar, mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash, o'quvchilar, o'qituvchi

ANNOTATSIYA

Maqolada bolalarning aqliy va mantiqiy eng avvalo mustaqil va tanqidiy fikrlashini shakllantirish va ushbu omillarni didaktik o'yinlar orqali yuzaga chiqarishning pedagogik imkoniyatlari va ushbu jarayonda tashqi muhitning tutgan o'rni haqida ilmiy xulosa va mulohazalar keltirilgan

KIRISH

Mamlakatimizda talim sohasi tobora rivojlanib borayotgan bir davrda malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj pedagogik sohada yana ham oshib bormoqda. Xususan pedagogik mahorat va saviyani yuksaltirish borasida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqil taraqqiyot yo'lidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimizda nafaqat iqtisod hamda siyosat balki, ilm-fan, madaniyat va ta'lim sohasida ham ko'plab rivojlanish strategiyalari ishlab chiqilmoqda. Shulardan biri "Maktabgacha talim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" bo'lib ushbu konsepsiyada rivojlangan mamlakatlar (hozirgi kunda Janubiy Koreya) modellaridan namuna olib, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning yo'l xaritalari belgilab berildi. Zero prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev ushbu soha haqida quyidagicha fikr bildirganlar: "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi." Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Ya'ni bolalar maktabgacha ta'limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko'nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatishi talab etiladi. Bolalarning ona tilida obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurlarini nutq orqali to'g'ri ifodalashi o'zini nazorat qilishi, boshqarishi, kuzatish, eshitish, eslab qolish, umumlashtirish, solishtirish kabi aqliy tayyorgarlikka ega



bo'lishi zarur. Bu vazifani bajarishda, albatta, MTTlarda nutq o'stirish mashg'ulotlarining o'ri, ahamiyati kattadir.

Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiri eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'q'vchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga tayyorlash bugungi boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan muhim talablardan biridir. Chunki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni oson va qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ham ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Buyuk mutafakkirlarimiz Xorazmiy, Farobiy, ibn Sinolar¹ ta'kidlagandek, bolaning mustaqil va mantiqiy fikrlashi jarayonida o'zlashtirilgan bilimlari biror-bir manbadan tayyor holda olingan bilimlar bilan qiyoslaganda katta afzallikka ega. To'liqroq va tezroq rivojlangan bu bilimlar o'quvchilar e'tiqodiga, ular tafakkuri hamda faol amaliy-mustaqil fikrlashi quroliga aylanadi.

Ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan fikrlash va aqliy qobiliyatni rivojlantiruvchi amaliy o'yinlar o'z-o'zidan didaktik xususiyat kasb

etadi, shu sababli ular ko'p holatlarda "didaktik o'yinlar" deb yuritiladi²

Ushbu o'yinlar tashqi muhit bilan bolani alohida bog'lab bilish qobiliyatini jadal rivojlantiradi, xususan bola shaxsining ijtimoiylashuviga ham yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ushbu mashg'ulotlarda bolalar tarbiyachi tomonidan beriladigan bilimlarni egallash bilan bir qatorda, tengdoshlarining ham nutqini tinlab ularni tushuna olishlari kerak bo'ladi. Zero til (nutq) kishilarning o'zaro aloqa vositasi bo'lib, u barcha kishilar uchun baravar, teng xizmat qiladi, shu bois til ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar, yangilanishlar tilda o'z aksini topadi. Nutq o'stirish mashg'ulotlari maktabgacha ta'limda bolalarni og'zaki nutqini o'stirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali nutqda so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, ya'ni nutq va xulq egasi bo'lish kabi ma'naviy axloqiy sifatlarni, so'zlash odobini egallashni shakllantiradi. Maktabgacha ta'lim davrida bolalar 2-3 ming so'z boyligiga ega bo'lish va undan foydalanish, eshitganlarini aytib berish, ko'rganini gapirib berish, suratlariga qarab mazmun bo'yicha hikoya tuzish va uni aytib berish, asosiy tayanch so'zlar yordamida hikoya tuzishga o'rgatiladi. Shuningdek, nutqning ifodaliligi, nutq tovushlarini to'g'ri, aniq talaffuz etish, tilning grammatik shakllaridan nutqda to'g'ri foydalanish, badiiy asarni tinglash, tushunish, mazmunni eslab qolish va so'zlab berish, asar qahramonlari nutqi xususiyatlarini ajrata bilish, obrazli bayon

¹ Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: «O'qituvchi», 1996.

² <http://tmatm.uz/site/wp-content/uploads/2015/09/2.-shahsga-junaltirilgan-talim-turlari>



etish kabi amaliy intellektga ega bo'lishni rivojlantiradi, maktabga nutqiy jihatdan tayyorlaydi.

Shulardan kelib chiqib, turli yosh guruhlari va o'quvchilarida mustaqil fikrlashini shakllantirish deganda quyidagilarni tushunamiz:

1. O'qituvchi aralashuvisiz mustaqil amalga oshirish uchun o'quvchining o'ziga bu faoliyatning alohida elementlarini bajarishni sekin-asta uzatish jarayoni, ya'ni axborotmotivatsiya jarayoni (bunda gap bolalar va o'quvchilari mustaqil fikrlashini qanday qilib ko'proq oqilona shakllantirish, mustaqil bajarish uchun uning alohida elementlarini qanday izchillikda berish ustida boradi).

2. Bilimlarni o'zlashtirish darajasi haqidagi xabarni nazorat etish jarayonini yaxlit ta'lim sifatida shakllantirish.

3. O'quvchilarning erkin, mustaqil va individual ishlarini tashkil etish va boshqarish. Faol mustaqil fikrlashni uning tuzilma komponentlari bilan birgalikda shakllanishini biz mazkur jarayonning didaktik asosi sifatida ko'rib chiqamiz.

NATIJALAR

Bolalarda turli yoshda mustaqil va qisman tanqidiy fikrlashni shakllantirishda mustaqil topshiriq va didaktik o'yinlarning hissasi katta.. Bu vositalar mustaqil fikrlashning barcha jihatlarini rag'batlantiradi.

Bunday tushunish boshlang'ich ta'lim nuqtai nazaridan quyidagi mulohazalar bo'yicha ayniqsa maqbuldir:

-bolalar va o'quvchilar mustaqil fikrlashida, katta guruhlar bilan qiyoslaganda, jonli, bevosita mushohada qilish bosqichi ancha muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichda o'quvchilar mustaqil fikrlashiga jarayonning bundan keyingi yo'li ko'p jihatdan bog'liq. Demak, bu bosqichga xos

bo'lgan psixik jarayonlarni (qabul qilish, e'tibor) faollashtirish zaruriyatini yetarlicha baholamaslik mumkin emas;

- rivojlanayotgan ta'lim g'oyalarini amalga oshira borib, boshlang'ich ta'limdayoq o'quvchining mustaqil fikrlashini rag'batlantirishga tobora ko'proq urg'u berilmoqda. Biroq, o'z mohiyatiga ko'ra, boshlang'ich ta'lim da ko'p narsani shunchaki yod olish, reproduktiv faoliyatdagi o'quv va ko'nikmalarni esa mashqlar orqali egallash kerak. Shu bois xotiraning ishi va reproduktiv faoliyatning rolini inkor etib bo'lmaydi;

- boshlang'ich ta'lim nuqtai nazaridan shunday holat ham ahamiyatliki, bolaning asab tizimi hali kuchsiz va aqliy qobiliyati nisbatan past. Shu bois bolaning qobiliyati, uning navbatdagi masalalarni bajarishga tayyorligi va kuch-quvvatini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus yo'naltirilgan usullar tizimi kerak bo'ladi.

Shunday qilib, maktabgacha talim jarayonida: aqliy va mantiqiy xususan mustaqil fikrlashning turli darajalarini shakllantirish (bilim-tanishuv, bilim-nusxa ko'chirish, bilimo'quv, bilim-ijod) faollashtirish zarur

Ta'limda faollashtirish uning ham oliy (bilim-o'quv, bilimijod), ham quyi (bilim-tanishuv, bilim-nusxa ko'chirish) darajalarida amalga oshirilishi zarur. Har bir bosqich aniq o'quv materiali va aniq mustaqil fikrlashga bog'liq holda kerak bo'ladi. G'oyaning quyidan yuqori darajalarga rivojlanishi quyi darajalarga e'tiborsizlik bilan qarashimiz mumkin, degani emas.

Mustaqil mantiqiy fikrlash asosida bolalar va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishning barcha muhim komponentlarini (maqsad, mazmun, shakllar, metod va usullar, vosita va



motivlar) birgalikda ko'rib chiqish imkoniyati paydo bo'ladi. Bularning hammasi, tabiiyki, bolalar va o'quvchilari mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asosiga kiradi. Mustaqil fikrlashning tashqi tomoni deganda biz ancha sodda jarayonlarni (qabul qilish, diqqat-e'tibor va boshqalarni) pag'batlantirish va bolaning umumiy ish qobiliyatini saqlashni tushunamiz. Buning uchun quyidagi usullar xizmat qiladi:

- turli metodlar, turlar va o'quv ishlari usullarini navbatlashtirish yo'li bilan turli asab markazlari ishlarini faollashtirishni ta'minlash;
- talim jarayonida so'z va ko'rgazmalilik, aniq va mavhumiylikning o'zaro to'g'ri munosabati;

XULOSA VA MULOHAZALAR

Umuman olganda turli yosh darajasidagi bolalarda xususan umumiy o'rta talimning boshlang'ich sinfi va maktabgacha talimning yuqori guruh vakillarida aqliy va mantiqiy xususan mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda tashqi muhitning o'rni beqiyosdir. Jumladan ushbu jarayonlarni jadallashtirish va malum tartibga solish borasida "Ilm yo'li", "Ilk qadam" kabi dasturlar yo'lga qo'yilgan. Ushbu dasturlarning vazifasi ta'lim tarbiya

jarayonlarini samarali tashkil etish va ushbu jarayonda maktabgacha talim yoshidagi bolalar egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar belgilab berilgan. Jumladan nutq o'stirish sohasi bo'yicha bolalarning „Nutq muloqot o'qish va yozish malakalari“ sohasi kompetensiyalari belgilangan. „Ilm yo'li“ variativ dasturidagi ushbu sohadagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetgandan so'ng 6-7 yoshli(maktabga tayyorlov) bolalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

- nutqni eshitadi va tushunadi;
- o'z nutqida to'g'ri talaffuz ,qulay gramatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi;
- ikkinchi tilni o'rganishga qiziqish namoyon qiladi;
- ikkinchi tilni egallash bo'yicha dastlabki bilimlarni ko'rsatadi; -badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon bo'ladi ;
- so'zning lug'aviy bo'g'inli fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- turli ma'no shakllarini mustaqil ravishta tuzish va so'zlab berishni biladi ;
- yozishning dastlabki malakalari va vosotalaridan foydalanishni biladi;

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.T.Axmedova, N.S.Shayzakova Nizolarning yuzaga kelishidagi shart sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari. Maktab va xayot.-T.: 2014.2-son. -B. 2-4.
2. С.В.Банькина Педагогическауа конфликтологиуа: состоуание, проблемы исследованиуа и перспективы развитиуа. М-2018
3. В.И.Грачева Введение в педагогическууу конфликтологиуу: Учебное пособие / В.И. Грачева. М. Моск. ун-т МВД России, 2004. – 98
4. Pedagog.uz
5. Cyberleninka.ru
6. Google.com
7. Article.uz